Tasheva Gulchexra Sulyaymanovna - Ph.D., assistent
Buxoro davlat tibbiyot instituti (Buxoro, O‘zbekiston)

PREMORBID FONLI BO‘LGAN BOLALARDA ODONTOGEN YALLIG‘LANISH KASALLIKLARINING MORFOLOGIK TEKSHIRUV-TADQIQOT NATIJALARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada subepitelial to`qimada ya`ni biriktiruvchi to‘qimada; interstisial matriksda qon-tomirlarining giperimiyasi (to`laqonlik), perivaskulyar sohada keng tarqalgan leykositar infiltrasiyaning ko`payganligi aniqlandi. Stromal to`qimada nuqtasimon qon quyilishlar ko`paygan va ular keng tarqalganligini ko`rishimiz mumkin.*

Kalit so'zlar: *premorbid fon, odontogen yiringli yallig'lanish kasalliklari, morfologik tekshiruv usullari, subepitelial to`qimada ya`ni biriktiruvchi to‘qima.*

Ташева Гулчехра Суляймановна - Ph.D., ассистент
Бухарский государственный медицинский институт (Бухара, Узбекистан)

МОРФОЛОГИЧЕСКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ ОДОНТОГЕННЫХ ВОСПАЛИТЕЛЬНЫХ ЗАБОЛЕВАНИЙ У ДЕТЕЙ С ПРЕМОРБИДНЫМ ФОНОМ-РЕЗУЛЬТАТЫ ИССЛЕДОВАНИЯ

Аннотация. *В этой статье в субэпителиальной ткани, т. е. в соединительной ткани; в интерстициальном матриксе обнаружена повышенная гиперемия кровеносных сосудов (полнота), широко распространенная лейкоцитарная инфильтрация в периваскулярной области. Мы видим, что точечные кровоизлияния в стромальную ткань увеличены, и они широко распространены.*

Ключевые слова*: преморбидный фон, одонтогенные гнойно-воспалительные заболевания, методы морфологического исследования, в субэпителиальной ткани, т. е. соединительной ткани.*

Tasheva Gulchexra Sulyaymanovna - Ph.D., assistant
Bukhara State Medical University (Bukhara, Uzbekistan)

MORPHOLOGICAL STUDY OF ODONTOGENIC INFLAMMATORY DISEASES IN CHILDREN WITH PREMORBID BACKGROUND -THE RESULTS OF THE STUDY

Abstract. *In this article, increased hyperemia of blood vessels (fullness) and widespread leukocyte infiltration in the perivascular region were found in subepithelial tissue, i.e. in connective tissue; in the interstitial matrix. We see that spot hemorrhages in the stromal tissue are increased, and they are widespread.*

Key words. *premorbid background, odontogenic purulent-inflammatory diseases, methods of morphological examination, in subepithelial tissue, i.e. connective tissue.*

Tadqiqotning dolzarbligi. Yiringli infektsiyaga qarshi kurashishning yangi usullarini ishlab chiqishga qaramay, yallig'lanish kasalliklari bilan og'rigan bolalar soni, ayniqsa tez-tez kasal bo'ladigan bolalarda yuqoriligicha qolmoqda. Yuz-jag' sohasining yallig'lanish kasalliklari bolalik davridagi barcha jarrohlik kasalliklarining 21% va tish kasalliklarining 52% ini tashkil qiladi. Odontogen YYAK etiologiyasi, patogenezi, oldini olish va yuz-jag' sohasi yiringli-yallig'lanish jarayonlarini davolash kabi ko'plab masalalarga tadqiqotchilar e'tibori qaratilgan. Shuningdek, bolalarda yuz-jag' sohasining o'tkir yallig'lanish jarayonlari ko'pincha tananing immunologik reaktivligi pasayishi bilan rivojlanadi va kasallikning kechishi hamda asoratlar ehtimoli asosan immun tizimining dastlabki ko'rsatkichlari o'zgarishi bilan belgilanadi. Odontogen yallig'lanish kasalliklari bilan kasallangan bolalarda a'zo va to'qimalar nisbiy yetukligi, immunitetning nomukammalligi, limfa to'qimalarning to'liq shakllanmaganligi, tish va jag'lar tuzilishining anatomik-fiziologik xususiyatlari mavjudligi, shikastlanish va uning asoratlariga moyilligi sababli yallig'lanish jarayonlarining keskin o'zgarishi kuzatiladi [2.4.6.8.10.12. 14.16].

Ko'plab epidemiologik tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki, har bir bola yiliga o'rtacha 3-5 ta o'tkir respirator virusli infektsiyalar (O'RVI) bilan kasallanish tendentsiyasi aniqlangan. O'RVI ning ko'p tarqalishi maktabgacha yoshdagi bolalar va boshlang'ich maktab o'quvchilarida kuzatilgan. Hayotning dastlabki 3 yilidagi bolalar bir yil ichida 4-4,5 yosh va undan katta bolalarga qaraganda 10 marta tez yuqumli kasalliklar bilan kasallanadi. Asoratli

respirator infektsiyalar tana funktsional holati buzilishiga olib kelgan, moslashuvning buzilishi va surunkali patologiya rivojlanishi kuzatiladi.


Tadqiqotning maqsadi. premorbid fonga ega bo‘lmagan bolalarda odontogen yallig‘lanish kasalliklarining morfologik tekshiruv-tadqiqot usullarini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqot ob'ekti. sifatida premorbid fonida bo'lmagan odontogen yiringli yallig'lanish kasalliklari mavjud morfologik tekshiruvdagi bemorlar olindi.


Natija va tahlillar. Tadqiqot uchun nazorat guruhi sifatida premorbid fonga ega bo`lmagan odongen yallig`lanish kasalliklari bilan kasallangan 60 nafar bemor bolalarning og`iz bo`shlig`idan olingan biomaterial (yumshoq to`qima), gistologik tekshiruv olib borilib, gemotoksillin-eozin va van-gizon bo`yoqlarida bo`yab ko`rildi. Odontogen yallig'lanish kasalliklarini, uning qanday omillar natijasida paydo bo'lganiga qarab bir necha guruhlarga bo`lish mumkin: 1) og'iz bo'shlig'i shilliq pardasining infektsion omillar, 2) zararli omillar (travma, nur energiyasi, ma’lum o`ziga xos moddalar va dori preparatlari) tufayli bevosita zararlanishidan keyin paydo bo'ladigan yallig`lanish kasalliklari. Organizmning umumiy kasalliklari: me’da ichak yo'li, yurak tomirlar tizimi, nerv tizimi kasalliklari, qon kasalliklari, turli infektsion kasalliklar oqibatida paydo bo'ladigan yani bilvosita zararlanishli yallig`lanish kasalliklari hisoblanadi. Og`iz bo`shlig`ida turli tuman, ko`p miqdorda mikroblarning bo`lishi yallig`lanish jarayonini tez va chuqur asoratlar ko`nishda davom etishiga sababchi bo`ladi. Og‘iz bo'shlig'ining odontogen yallig'lanishini bir qancha qo`zg`atuvchilar keltirib chiqaradi, xususan viruslar, bakteriyalar va mikoplazma kabilar shular jumlasidandir. Yuqoridagi turli tuman yallig`lanish qo`zg`atuvchilar zararlangan tish kovaklari va tish-milk chuqurchasida yig`ilib, infeksiya latent, yashirin holda bo`lib, organizmning immun-himoya kuchlarining susayishi, ularning ko`payib avvaliga mahalliy ya`ni tish va uning atrofidagi to`qimalarni yallig`lanish chaqiradi. Immunologik jarayonlarning sustligi yallig`lanish jarayonini tezlashishiga, butun organizmni zaharlanishiga olib keladi.

Tadqiqotimizda ajratib olingan mikropreparatlarni gemotoksillin-eozin bilan bo`yab ko`rilganda odontogen yallig`lanish natijasida tish va uning atrofidagi yumshoq to`qimasida quyidagi morfologik o`zgarishlar aniqlanildi [1.3.5.7.9.11.13.15.17].

Gistologik tekshiruvda; zararlangan tish va uning atrofida mikroblar to ‘plamlari, ko‘chib tushgan epitelial hujayralar, amorf detrit, leykositlardan iborat tish kiri paydo bo`ldi, milk chetining epiteliysida hujayralar gidropik distrofiyasi, o`choqli nekrotik o`zgarishlar aniqlanildi (rasm 1,2).




Rasm 1. **Og`iz bo`shlig`i shilliq qavati to‘qimasining mikroskopik ko‘rinishi. Bo‘yoq G-E. Ob 4x20ok. 1. Interstisial matriksda qon-tomirlarining giperimiyasi(to`laqonlik). 2. Perivaskulyar sohada keng tarqalgan leykositar infiltrasiya. 3. Mezenximal hujayralar yani fibroblastlarning notartib yo`nalishi va qalinlashuvi.4. Hujayra atrofidagi matriksda keng tarqalgan shish.**




Rasm 2. **Og`iz bo`shlig`i shilliq qavati to‘qimasining mikroskopik ko‘rinishi. Bo‘yoq G-E. Ob 4x20ok. 1.Interstisial matriksda qon-tomirlarining giperimiyasi(to`laqonlik). 2. Perivaskulyar sohada keng tarqalgan leykositar infiltrasiya. 3.Stromal to`qimada nuqtasimon qon quyilishlar, keng tarqalgan. 4.Mezenximal hujayralar yani fibroblastlarning notartib yo`nalishi va qalinlashuvi. 5. Epiteliysida hujayralar gidropik distrofiyasi va deskvamatsiyasi.**

Subepitelial to`qimada ya`ni biriktiruvchi to‘qimada; interstisial matriksda qon-tomirlarining giperimiyasi(to`laqonlik), perivaskulyar sohada keng tarqalgan leykositar infiltrasiyaning ko`payganligi aniqlandi.Stromal to`qimada nuqtasimon qon quyilishlar ko`paygan va ular keng tarqalganligini ko`rishimiz mumkin. Mezenximal hujayralar ya`ni fibroblastlar kollagen tolalarning notartib yo`nalishi va qalinlashganligi aniqlanildi. Biriktiruvchi to`qimada mukoidli va fibrinoidli bo‘kishga xos o`zgarishlar, vaskulitlar ko'zga tashlanadi (rasm 3,4).



Rasm 3. **Og`iz bo`shlig`i shilliq qavati to‘qimasining mikroskopik ko‘rinishi. Bo‘yoq G-E. Ob 4x20ok. 1.Interstisial matriksda qon-tomirlarining giperimiyasi(to`laqonlik). 2. Perivaskulyar sohada o`choqli leykositar infiltrasiya. 3.Stromal to`qimada nuqtasimon qon quyilishlar, keng tarqalgan. 4.Mezenximal hujayralar yani fibroblastlarning notartib yo`nalishi va qalinlashuvi.**

Odintogen yallig`lanish jarayonida qo`zg`atuvchi toksinlarining ortib borishi bilan bir qatorda neytrofil leykositlarning ko`payib borishi, organizmning immune sistemasining pasayishi oqibatida zararlangan tish, tishning doiraviy boylami, keyin tish bilan milkning birikkan joyi ham yemiriladi va suyak usti pardasi ham zararlanib, qalinlashadi, ba`zi joylari o'rnidan ko'chib qoladi. Yuqoridagi tishning doiraviy boylamlari, suyak usti pardasi stromasida keng tarqalgan nuqtasimon qon quyilishlar, mezenximal hujayralar yani fibroblastlarning notartib yo`nalishi va qalinlashgan fibrinoidli bo`kishini ko`rishimiz mumkin (rasm 4).



Rasm 4. **Og`iz bo`shlig`i shilliq qavati to‘qimasining mikroskopik ko‘rinishi. Bo‘yoq G-E. Ob 4x20ok. 1.Mezenximal hujayralar yani fibroblastlarning notartib yo`nalishi va qalinlashuvi. 2.Interstisial matriksda qon-tomirlarining giperimiyasi(to`laqonlik). 2. O`choqli leykositar infiltrasiya. 3.Stromal to`qimada nuqtasimon qon quyilishlar, keng tarqalgan.**

Odontogen yallig`lanish kasalliklarida tish va uning atrofida to`qimalarda neytrofillardan iborat infiltrasiyaning kuchayib borishi, shishning yuzaga kelishi, qon tomirlarda giperimiya bo'lishi, to`qimalarda oziq moddalar, oqsillar, minerallar, vitaminlarning ham yetishmovchiligi ortib boradi. Jarayonning erta davrlarda yallig`lanish belgilari o'choqli ko`rinishda namoyon bo`lib, tezda kuchayib diffuz ko`rinishga aylanadi. Gistologik tekshiruvda; zararlangan tish va uning atrofida mikroblar to‘plamlari, ko‘chib tushgan epitelial hujayralar, amorf detrit, leykositlardan iborat tish kiri paydo bo`ldi, milk atrofi epiteliysida hujayralar gidropik distrofiyasi, o`choqli nekrotik o`zgarishlar, o`choqli deskvamatsiyasi ya`ni nekrozga uchragan epiteliyning ko`chib tushganligi, mayda eroziv o`zgarish aniqlanildi. Subepitelial to`qimada ya`ni biriktiruvchi to‘qimada; interstisial matriksda qon-tomirlarining giperimiyasi (to`laqonlik), stromal to`qimada nuqtasimon qon quyilishlar ko`paygan va ular keng tarqalganligini ko`rishimiz mumkin. Perivaskulyar sohada keng tarqalgan leykositar infiltrasiyaning ko`payganligi aniqlandi. Mezenximal hujayralar ya`ni fibroblastlar kollagen tolalarning notartib yo`nalishi va qalinlashganligi aniqlanildi.

Xulosa. Biriktiruvchi to`qimada mukoidli va fibrinoidli bo‘kishga xos o`zgarishlar, vaskulitlar aniqlanildi. Yallig`lanishning kuchayib borishi suyak usti pardasiga ham tarqalib, uning qalinlashib qolishiga, o'rnidan ko'chib qolishiga olib keladi. Suyak usti pardasining suyakdan ajralishi shu oraliqdan neytrofil leykositlarning suyak va suyak ko`migiga o`tishiga yo`l ochadi. Ko'mikka qon to'lib, unda yiringlagan joylar paydo bo'ladi, tish artofidagi alveolyar o`sig`i so'rilishiga olib keladi. Odonton yallig`lanishning shu tarzda kechishi absess va flegmona ko`rinishidagi asoratlarni yuzaga chiqaradi. Qoz`g`tuvchi toksinlarining qonga so`rilishi odontogen sepsisni keltirib chiqaradi va bu jarayon bolalarda juda tez kechishi bilan kattalardan farqlanadi.

ADABIYOTLAR

1. Kamalova F.R., Tasheva G.S. Chabges in microflora non-specific factors protection of the oral cavity in children with inflammatory diseases of maxillofacial area // Evropean chemical Bulletin. –

2023. – № 12(Special Issue 1). – С.1827-1831. (Scopus).

2. Tasheva G.S. Treatment of odontogenic inflammatory diseases in frequently ill children // Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2021. – Т. 2, № 07. – С.178-184. (Web of Science).

3. Камалова Ф.Р., Ташева Г.С. Одонтоген йирингли-яллиғланиш касалликлари асоратларининг ёшга боғлиқ кўрсаткичлари // Тиббиётда янги кун. – Бухоро, 2023. – № 2(52). – С. 7-15. (14.00.00; №22).

4. Ташева Г. С. Одонтоген яллиғланиш билан касалланган болаларни комплекс даволаш усуллари // Журнал стоматологии и краниофациальных исследований. – 2023. – Том 4, № 2. – С. 71-74. (14.00.00; №53).

5. Ташева Г. С. Тез-Тез одонтген яллигланиш касалликлари билан касалланган болаларда бактериологик даволаш усуллари // Ўзбекистон тиббиёт журнали. – 2023. – № 2. – С. 73-77. (14.00.00; №8).

6. Tasheva G.S. The Effectiveness and Treatment of Odontogenic Inflammatory Diseases in Frequently Ill Children // International Journal of Human Computing Studies. – 2021. – Т. 3, № 5. – С.9-12. (Impact Factor - 7.69)

7. Tasheva G. S. Maxillofacial area and soft tissues of odontogenic inflammatory diseases in frequently ill children //Research Jet Journal of Analysis and Inventions. – 2021. – Т. 2, № 07. – С.126-130. (Impact Factor - 7.655)

8. Tasheva G.S. Features of the Course and Treatment of Odontogenic Inflammatory Diseases in Frequently Ill Children // Middle European Scientific Bulletin. – 2021. – № 14. – С.101-105 (Impact Factor - 7.525)

9. Tasheva G.S. Modern features etiopathogenesis and clinic of purulent-Inflammatory diseases of the maxillofacial region // European journal of life safety and stability. – 2021. – № 12. – С.464-469. (Impact Factor - 6.832)

10. Tasheva G.S. Early Diagnosis and Treatment of Odontogenic Inflammatory Diseases // Scholastic: Journal of Natural and Medical Education. – 2022. – Т. 1, С.18-23 (Impact Factor - 5.267)

11. Tasheva G. S. The Prevalence of Odontogenic Inflammatory Diseases in Frequently Ill Children //Central Asian Journal of Medical and Natural Science. – 2021. – Т. 2. – №. 4. – С. 56-59.

12. Tasheva G. S., Eronov Yo. Q. Features of the course and treatment of odontogenic Inflammatory diseases in frequently ill children // Journal of Tianjin University- Science and Technology. – 2021. – Т. 65. – №. 4. – С. 26-31.

13. Tasheva G. S. Prevalence of odontogenic diseases in frequently ill children //Conferencious Online Humino Congress 21-22 august. 2021. Paris. – 2021. – С.49-50.

14. Tasheva G. S. Odontogenic Inflammatory Diseases in Frequently Ill Children //International Conference on Social and Humanitarian Research 7-18th September, 2021, Poland. – С. 24-25.

15. Ташева Г. С. Гнойно-воспалительные заболевания челюстно-лицевой области у детей // IV Международной научно-практической конференции «Организм и среда жизни» к 207-летию со дня рождения Карла Францевича Рулье. - Кемерово, 2021. – С. 378-384.

16. Ташева Г.С. Одонтоген яллиғланиш билан касалланган болаларни эрта ташхислаш ва комплекс даволаш усулларини такомиллаштириш. ЭҲМ учун яратилган дастурнинг расмий рўйхатдан ўтказилганлиги тўғрисидаги Гувоҳнома № DGU 20673 18.11.2022 й.

17. Иноятов А.Ш., Ташева Г.С. Одонтоген яллиғланиш билан касалланган болаларни комплекс даволаш усуллари // Услубий тавсиянома. – Бухоро, 2022. – 24 б.